

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Alimova Gulchehra Ikromali qizi

FarDU Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko‘nikmalarining psixologik-pedagogik talqini, uning rivojlanish qonuniyatlari, o‘yin faoliyatining yetakchi roli hamda muloqot rivojlanishidagi muammolar va ularning kelib chiqish sabablari tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalar, temperament turlarining muloqotga ta’siri va muloqot ko‘nikmalarini baholashning nazariy asoslari yoritilgan. Maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, metodistlari va psixologlari uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *muloqot ko‘nikmalari, maktabgacha yosh, o‘yin faoliyati, pedagogik mexanizmlar, psixologik-pedagogik talqin, temperament, muloqot muammolari, ijtimoiy kompetensiya.*

Kirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalik davri inson hayotining poydevori hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada shaxsning asosiy sifatleri, jumladan, ijtimoiylashuv va muloqot qilish qobiliyatlari shakllana boshlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish belgilangan. Shu bois, maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning ijtimoiy o‘yin faoliyati va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi doimo dolzarb bo‘lib qoladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishi uning jamiyat a‘zosi sifatida shakllanishining dastlabki bosqichidir. Bu jarayon bolaning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlar o‘rnatish, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni o‘zlashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va Maktabgacha ta’limga oid davlat talablarida barkamol, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta’kidlangan. Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish, ularning hissiy holatini tushunish, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va umumiy qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga amal qilish qobiliyatidir.

Asosiy qism.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro munosabati bo‘lib, unda ular fikr, his-tuyg‘u va ma‘lumot almashadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muloqot ko‘nikmalari maktab ta‘limiga tayyorgarlik va keyingi hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishning asosiy omillaridan biridir. Muloqot ko‘nikmalari deganda quyidagilar tushuniladi: suhbatga kirisha olish va uni davom ettira olish; o‘z fikrini aniq va ravon ifoda eta olish; suhbatdoshini tinglay olish va uning fikrini tushunish; o‘z navbatida gapirish qoidalariga amal qilish; so‘rov bilan murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish, kechirim so‘rash kabi odob-axloq qoidalarini bilish.

Mashhur psixolog L.S. Vygotskiy ta‘kidlaganidek, o‘yin bola rivojlanishining “eng yaqin zona” sini yaratadi. O‘yinda bola o‘zining kundalik hayotdagi imkoniyatlaridan ko‘ra ko‘proq narsaga qodir bo‘ladi. A.P. Usova esa “Bolalar hayoti va faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish — ularni to‘g‘ri tarbiyalash demakdir”, deb ta‘kidlab, o‘yinning tarbiyaviy ahamiyatini alohida qayd etgan. O‘yin va muloqot bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Bola hech qachon jim o‘ynamaydi. Yolg‘iz o‘ynasa ham u o‘yinchodagi bilan gaplashadi, o‘zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o‘rnatadi. Guruhli o‘yinlarda esa muloqot o‘yinning asosiy shartiga aylanadi. Bolalar rollarni taqsimlash, o‘yin syujetini kelishish, yuzaga kelgan muammoni hal qilish uchun muloqot qilishga majbur bo‘ladilar.

Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj bolaning kattalar bilan birgalikdagi faoliyatining xususiyatiga qarab o‘zgarib boradi. Rivojlanishning har bir bosqichida muloqotga bo‘lgan ehtiyoj bolaning yoshiga xos bo‘lgan asosiy vazifalarni hal qilish uchun zarur va yetarli bo‘lgan kattalarning ishtirokiga bo‘lgan ehtiyoj sifatida shakllanadi. Bolaning kattalar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojining rivojlanishida to‘rt bosqich mavjud: I bosqich – kattalarning e‘tibori va mehriga bo‘lgan ehtiyoj (birinchi yarim yillik); II bosqich (6 oydan 3 yoshgacha) – kattalar bilan hamkorlik qilish yoki ishtirok etish zarurati; III bosqich (3 yoshdan 5 yoshgacha) – kattalarning hurmatli munosabatiga bo‘lgan ehtiyoj; IV bosqich (5 yoshdan 7 yoshgacha) – o‘zaro tushunish va hamdardlikka bo‘lgan ehtiyoj.

Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli xil o‘yin turlari o‘ziga xos pedagogik mexanizmlarga ega. Rolli o‘yinlarda bolalar ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish, dialogik nutqni rivojlantirish va empatiya qilishni o‘rganadilar. Masalan, “Kasalxona” o‘yinida bola shifokor rolini bajarar ekan, bemor bilan muloyim muloqot qilish, kasallik belgilarini so‘rash, maslahat berish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Didaktik o‘yinlar bolalarning bilish faoliyati bilan birga muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. “Sehrli qopchi”, “Kim tez topadi?” kabi o‘yinlarda bolalar navbat bilan gapirishga, bir-birlarining javoblarini tinglashga majbur bo‘ladilar. Harakatli o‘yinlar ko‘pincha jamoaviy xarakterga ega bo‘lib, bolalar birgalikda harakat qilishni, bir-birlarining imkoniyatlarini hisobga olishni o‘rganadilar.

Teatrlashtirilgan o‘yinlarda esa bolalar turli qahramonlarning nutqiga taqlid qilish orqali nutqiy ifodalilikni o‘zlashtiradilar.

O‘yin jarayonida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1-bosqich – Tayyorgarlik (motivatsion): bolalarda o‘yinga va muloqotga qiziqish uyg‘otish, o‘yin uchun zarur bo‘lgan lug‘at boyligini ta‘minlash, o‘yin qoidalari bilan tanishtirish. 2-bosqich – Birgalikdagi o‘yin (tashkil etish): tarbiyachi bolalar bilan birgalikda o‘ynab, ularga muloqot qilish namunalarini ko‘rsatadi. 3-bosqich – Mustaqil o‘yin (amaliyot): bolalar o‘rgangan muloqot ko‘nikmalarini mustaqil o‘yinlarda qo‘llaydilar. 4-bosqich – Ijodiy qo‘llash (rivojlantirish): bolalar o‘zlashtirgan muloqot ko‘nikmalarini yangi o‘yin vaziyatlarida va boshqa faoliyat turlarida ijodiy qo‘llay boshlaydilar.

Bolaning muloqotdagi ayrim muammolariga uning psixologik temperamentlari ham sabab bo‘lishi mumkin. Psixologiyada bolalar temperamentlari asosan to‘rt turga bo‘linadi: sangvinik (faol, quvnoq, tez moslashuvchan, oson muloqotga kirishadi); xolerik (juda harakatchan, kuchli xarakterli, tez jahli chiqadigan, yetakchilikka intiladi); flegmatik (sokin, vazmin, sabrli, shoshilmaydi); melankolik (juda sezgir, tortinchoq, ichki dunyosi boy, his-tuyg‘ularini ichida saqlaydi). Har bir temperament turi muloqot uslubiga bevosita ta‘sir qiladi va tarbiyachi bu xususiyatlarni hisobga olishi zarur.

Muloqot muammolarining kelib chiqish sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bir nechta asosiy guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi navbatda, biologik omillarni ko‘rsatish mumkin: bolaning tug‘ma yoki orttirilgan sog‘liq muammolari, ayniqsa, nutq apparati, eshitish qobiliyati yoki asab tizimi bilan bog‘liq muammolar. Ikkinchi muhim omil – psixologik sabablar: bolaning o‘ziga ishonchsizligi, qo‘rquv, stress, xavotir. Uchinchi sabab – ijtimoiy muhit bilan bog‘liq omillar: oilada kattalarning bolalar bilan kamsuhbatlashishi, faqat buyruq ohangida gaplashishi yoki zamonaviy texnologiyalarning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi. To‘rtinchi omil – pedagogik sabablar: tarbiyachining noto‘g‘ri yondashuvi, interaktiv usullarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi. Shuningdek, individual xususiyatlar, madaniy va til omillari ham muloqot muammolariga olib kelishi mumkin.

Maktabgacha yosh davri (3–7 yosh) bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda yuzaga keladigan muloqot muammolari bolaning umumiy rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin elementlari, interaktiv metodlar va vizual materiallardan foydalanish bolalarning nafaqat savodxonligini, balki muloqot ko‘nikmalarini ham oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Samarqand davlat universiteti tadqiqotlarida ta‘kidlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirishda teatrlashtirish usullari, sahnalashtirish o‘yinlari va savol-javoblar juda foydali hisoblanadi.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish murakkab va ko‘p qirrali pedagogik jarayondir. Bu jarayonda o‘yin yetakchi vosita, tarbiyachi esa asosiy tashkilotchi va yo‘naltiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqot muammolarini erta aniqlash va ularni bartaraf etishda individual yondashuv, psixologik qulay muhit va oila bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori. “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
3. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2019.
4. Vygotskiy, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press.
5. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
6. Guilford, J.P. (1967). The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill.
7. Torrance, E.P. (1968). Torrance Tests of Creative Thinking. Bensenville: Scholastic Testing Service.
8. Usova, A.P. (1981). O‘yin va bola tarbiyasi. Moskva: Pedagogika.